

JUMAYEV Turdali Saminjonovich,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi, PhD
turdali240483@gmail.com

TA'LIM JAROYONIDA INTERAKTIV KONTENTLARNI ISHLAB CHIQISH

РАЗРАБОТКА ИНТЕРАКТИВНОГО КОНТЕНТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

DEVELOPMENT OF INTERACTIVE CONTENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassalari ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy interfaol usullarni qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, mashg'ulotlar davomida talabalarining fanga bo'lgan qiziqishi va mavzuni o'zlashtirishida qo'llaniladigan eng samarali platformalardan biri bo'lgan Quizizz platformasida kontentlar ishlab chiqish va tizimning imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish, interfaol usul, quizizz, kontent, test, so'rov, ochiq so'rov, yopiq so'rov, platforma, tizim.

Аннотация. В данной статье рассказывается об использовании современных интерактивных методов с целью повышения эффективности образовательного процесса высших учебных заведений. Также разработка контента и возможности системы представлены на платформе Quizizz, одной из самых эффективных платформ, используемых для стимулирования интереса учащихся к науке и овладения предметом во время занятий.

Ключевые слова: обучение, интерактивный метод, викторина, контент, тест, опрос, открытый опрос, закрытый опрос, платформа, система.

Annotation. This article describes the use of modern interactive methods in order to improve the efficiency of the educational process of higher educational institutions. Also, content development and system capabilities are featured on the Quizizz platform,

one of the most effective platforms used to stimulate student interest in science and mastery of the subject during class.

Keywords: training, interactive method, quizizz, content, test, survey, open survey, closed survey, platform, system.

KIRISH

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu usullarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Shuningdek, talabalar mavzular bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini yana rivojlantirish va dars jarayoniga talabalarni to'la qonli qamram olish maqsadida turli xil interfaol test tizimlardan ham foylanish mumkin. Ushbu tizimlar fanlarni o'zlashtirishini yanada mustaklab, talabaning tezkor qaror chiqarishiga va olgan bilimlarini yanada mustahkamlashiga yordam beradi [1:140, 2:45, 3:275].

ASOSIY QISM

Ta'lim jarayonida talabalarining bilim va ko'nikmalarini yanada shakllantirish maqsadida turli xil samarali usullardan foydalanilib kelinmoqda. Bu jarayonlarni tashkil yetish uchun turli xil interaktiv platformalardan foydalanib kelinmoqda. Shunday interaktiv dasturlar qatoriga Quizizz platformasini ham qo'shish mumkin.

Quizizz platformasi 2015 yilda Hindistonning Bengaluru shahrida Ankit Gupta va Dipak Joy Cheenat tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu


platforma ilk bor AQShning yetakchi va nufuzli o'qituvchisi Jon Korippo Viki Devis ishtirokidagi "10-minute teacher podcast" tok-shousida namoyish qilingan. Ushbu platforma dunyo miqyosida juda katta qiziqishga sabab bo'lgan. Qisqa vaqt davomida Quizizz platformasidan 65 milliondan ortiq foydalanuvchi ro'yhatdan o'tgan.

Ushbu platformaga qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Bunga sabab qilib platformani foydalanuvchilar uchun juda qulay interfeysni taklif etganligi. Shuningdek, Quizizz platformasi orqali ishlab chiqilayotgan kontentlarni tahlil qilish imkoniyatini juda sanarali yo'lga qo'yilganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Quizizz platformasi mavzuga oid turli xil viktorina va yangi darslarni tashkil yetish jarayonini qulay va sifatli ishlab chiqiladi. Shuningdek, ushbu platformada talabalar tomonidan yechilgan interaktiv test jarayonlari haqida to'liq hisobot olish mumkin. Natijalarni kerakli manzilga jo'natish imkoniyati ham beradi. Hozirgi kunda Quizizz platformasidan dunyo bo'yicha 10 milliondan ortiq talaba Quizizzdan foydalanadi. Oyiga yarim milliard savolga javob beriladi. Amerika qo'shma Shtatlaridagi har 2 maktabdan 1 tasi Quizizz platformasidan foydalanadi [4:250, 5:85, 6:60].


Quizizz platformasidan ro'yhatdan o'tish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Brauzerga manzil qatoriga "quizizz.com" veb sahifa nomi kiritiladi va quyidagi oyna hosil bo'ladi:




1-rasm. Quizizz platformasi asosiy oynasi.

2. Ushbu oynadan "Sign up" tugmasini bosiladi. Tizimga kirish uchun elektron pochta mavjud bo'lishi kerak.



2-rasm. Tizimga kirish oynasi.


3. Google akkaunt yordamida ham tizimga kirish mumkin.



3-rasm. Quizizz platformasi oynasi

Quizizz platformasida kontentlar ishlab chiqish va tizimning imkoniyatlari. Quizizz platformasida ikki xil ko'rinishdagi kontentlarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Dastur oyinasida "Новая викторина" ya'ni yangi interaktiv test deb nomlangan bo'lim bo'lib, unda quyidagi amallarni bajarish mumkin:

Новая викторина (Yangi viktorina);
Новая урок (Yangi dars).



4-rasm. Quizizz platformasida kontentlar ishlab chiqish.


I. "Новая викторина" – Yangi viktorina

1. "Новая викторина" bo'limidan – yangi viktorina yaratish bo'limida to'g'ridan- to'g'ridan

efirda yoki asinxron rejimda viktorina savollarini ishlab chiqishni amalga oshirish mumkin.


“Назовите эту викторину” – yaratiloyangan viktorinaga nom beriladi. Ushbu nomda belgilar soni 64 simvoldan oshmasligi lozim.

“Выберите соответствующие темы” – viktorinaga oid sohani tanlash lozim bo‘ladi.



5-rasm. Yangi viktorina yaratish oynasi.


“Телепорт из библиотеки Quizizz” – Quizizz kutubxonasida mavjud bo‘lgan savollaridan foydalanish mumkin.



6-rasm. Quizizz kutubxonasida mavjud bo‘lgan savollar.

Quizizz kutubxonasida savollarni izlashni quyidagi parametrlar asosida tartiblash mumkin:

- Оценки (Baholar);
- Предметы (Fanlar);
- Количество вопросов (Savollar soni);
- Языки (Tillar).



7-rasm. Savollarni izlash oynasi.

Kerakli parametrlarni tanlagan holda savollar bazasini shakllantirish mumkin. Shuningdek, savollar bazasini yangi savollar bilan o‘zingiz to‘ldishingiz ham mumkin. Yangi savollar bazasini quyidagi turdagi savollar bilan shakllantirish mumkin:

“Множественный выбор” (Ko‘p tanlovli so‘rov);


“Голосование” (Ovoz berish so‘rov);

“Заполнить бланк” (Yoriq so‘rov);

“открытый” (Ochiq so‘rov);

“Рисовать” (Rasmlı so‘rov);


“Торка” (Slaydli so‘rov).



7-rasm. Test shakllari oynasi.


Yangi test savollari shakllantirish uchun test mazmuniga mos test shakli tanladi.

“Множественный выбор” - test tuzish shaklidan namuna. Test savollariga rasm, ovoz va videolar ham qo‘shib tuzish mumkin. Test javoblaridan to‘g‘ri javoblarga “✓” belgisi qo‘yiladi. No‘to‘g‘ri javoblar belgilanmaydi. Yangi test savolini qo‘shish uchun “Создать вопрос” bandidan “Новый вопрос” tanlanadi. Kerakli test shaklini tanlagan holda yangi test savollarini yaratish mumkin.



8-rasm. Yangi test savolini qo'shish.

Yangi test savollarini test savollari vaqtini ham har bir test savoli uchun alohida belgilash mumkin. Test savollarini Quizizz platformasi bazasiga saqlash uchun “Сохранить” tugmasi bosiladi [10].



9-rasm. Test savollarini saqlash.

Kerakli parametrlar tanlangandan so'ng test savollarini saqlash mumkin.

XULOSA

Ushbu platformadan barcha ta'lim sohasi vakillari, erkin tinglovchilar va boshqa turli soha vakillari foydalanishlari mumkin. Quizizz platformasidan foydalanish natijasida olib borilgan har qanday turdagi mashg'ulotning qiziqarli o'tishiga imkon beradi. Shuningdek, ota-onalar o'z farzandlarini mashg'ulot natijalarini nazorat qilish va tahlil qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. – 180 b.
2. Jumayev T.S. Ta'lim jaroyonida o'qitishning zamonaviy metodlarining qo'llanilishi // Axborot xavfsizligi sohasida raqamlashtirish muammolari va istiqbollari. – Toshkent, 2022. 148-150 b.
3. Бурняшева Л.А. Активные и интерактивные методы обучения в образовательном процессе высшей школы. Методическое пособие / Л.А.Бурняшева. – Москва: КноРус, 2016. – С. 219.
4. Воронкова О.Б. Информационные технологии в образовании. Интерактивные методы / О.Б.Воронкова. – Москва: Феникс, 2018. – С. 598.
5. Генике Е.А. Активные методы обучения. Новый подход / Е.А. Генике. – Москва: Национальный книжный центр, 2015. – С. 832.
6. Гражданское образование. Содержание и активные методы обучения. – Москва: Межрегиональная ассоциация «За гражданское образование», Фонд «Сивитас», 2013. – С. 184.
7. Кашлев, С. С. Интерактивные методы обучения / С.С.Кашлев. – Москва: ТетраСистемс, 2013. – С. 224.
8. Кашлев Сергей Семенович Интерактивные методы обучения. Учебно-методическое пособие / Кашлев Сергей Семенович. – Москва: ТетраСистемс, 2013. – С. 716.
9. Кудряшев Н. И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы / Н.И. Кудряшев. – Москва: РГГУ, 2015. – С. 192.
10. quizizz.com – Интерактив ta'lim kontentlari platformasi.